Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 30-oktabr, № 222 (8845) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANOBI OLIYLARIGA

“Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilarining MUROJAATI

Muhtaram Prezident Janobi Oliylari,

Sizning **“Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o‘rni”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigingizni biz, barchamiz konferensiyamiz uchun o‘ziga xos dasturilamal sifatida qabul qildik.

O‘zbekiston zaminida tavallud topib o‘zining benazir iste’dodi, bilim va tafakkuri, ezgu fazilatlari bilan islom olamida shuhrat qozongan buyuk allomalarning boy ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib etish borasidagi faoliyatimizga alohida e’tibor qaratib, kamtarona mehnatimizga yuksak baho berganingizdan g‘oyat mamnunmiz va buning uchun **Sizga samimiy minnatdorligimizni** izhor etamiz.

Hech shubhasiz, biz – islomshunos, termiziyshunos olim va tadqiqotchilar haqidagi iliq va haqqoniy fikrlaringiz bizni yanada ko‘proq izlanib, yangi-yangi tadqiqotlar yaratishga, islom dinining **Siz ta’kidlab aytgan** tinchlik, ezgulik va insonparvarlik mohiyatini keng ochib berishga ilhomlantiradi.

Biz Yangi O‘zbekistonda **Sizning bevosita rahbarligingizda** barcha jabhada, xususan, ta’lim, fan, madaniyat va ma’rifat, diniy munosabatlar yo‘nalishida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni **katta e’tibor bilan kuzatamiz** va **har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz**.

Bu sohalardagi o‘zgarishlar O‘zbekiston xalqi o‘z oldiga oliy maqsad qilib qo‘ygan **Uchinchi Renessans** poydevorini barpo etish yo‘lida chin dildan harakat qilayotgani va bu intilish ulkan amaliy jarayonga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Azal-azaldan buyuk allomalar yurti, tinchlik va do‘stlik diyori sifatida **nom qozongan O‘zbekiston zamini** bugungi kunda o‘zining tinchlikparvar siyosati bilan xalqaro miqyosda tobora yuksak obro‘-e’tibor qozonayotgani bizni behad mamnun etadi.

Bu, hech shubhasiz, **Sizning davlat rahbari sifatida** chuqur o‘ylab olib borayotgan **oqilona siyosatingiz**, jahon miqyosida ilgari surayotgan ezgu va xayrli **tashabbuslaringiz** samarasidir.

Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bayon etilgan va jahon hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlangan **“Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi”** degan fikringiz mamlakatda olib borilayotgan tinchlikparvarlik siyosatining asl ma’no-mazmunini o‘zida yaqqol namoyon etadi.

Siz ilm-fanni rivojlantirish, o‘zlikni anglash, yoshlar tarbiyasi, islom dinining asl mohiyatini idrok etish kabi masalalarni davlat siyosati darajasiga ko‘tarib, **Birinchi** va **Ikkinchi** Sharq Uyg‘onish davriga mansub ko‘plab yorqin namoyandalarning jahon va islom sivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaho hissasini o‘rganish, ularni yangi sharoitda hayotga tatbiq etish bo‘yicha **keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqdasiz**.

Bunga **“Imom Termiziy tavalludining 1200-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”**gi qaroringiz va ana shu tarixiy hujjat asosida Termiz shahrida o‘tkazilgan **“Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o‘rni”** mavzusidagi xalqaro anjuman ham yorqin misol bo‘la oladi.

Biz **Sizning** ana shu kabi tashabbuslaringizni **to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz** va O‘zbekistonning diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarini xalqaro miqyosda targ‘ib etishda **faol hamkorlik qilishga tayyormiz**.

“Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” mavzusidagi nufuzli xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda Imom Termiziy va termiziy allomalarning ilmiy merosiga doir turkum ilmiy ma’ruzalar tinglandi va anjuman yakunida tegishli qaror hamda Termiz deklaratsiyasi qabul qilindi.

Anjumanni tashkil etishdan ko‘zlangan **maqsadga to‘laqonli erishildi**, deb hisoblaymiz.

Biz o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk mutafakkirlarimiz qoldirgan buyuk va bebaho merosni o‘rganish, asrab-avaylash va targ‘ib etish borasidagi sharafli va mas’uliyatli ishga **o‘z hissamizni qo‘shayotganimizdan mamnunmiz**.

Zero, O‘zbekistonning madaniy merosi butun insoniyatning boyligidir.

Muhtaram Prezident Janobi Oliylari,

O‘zbekistonda ilm-fan va diniy sohani qo‘llab-quvvatlash, ulug‘ allomalarning ilmiy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib etish uchun zarur sharoitlar yaratib berilayotganini e’tirof etib, buning uchun **Sizga** yana bir bor **chuqur ehtiromimiz** va **tashakkurimizni** izhor etishga ijozat bergaysiz.

Islom dini mohiyatida mujassam bo‘lgan ezgulik va insonparvarlik g‘oyalarining tub mazmun-mohiyatini ochib beradigan buyuk mutafakkirlar asarlarini o‘rganish, targ‘ib etish va kelajak avlodga bezavol yetkazishda bundan buyon ham **Sizning eng yaqin ko‘makchingiz bo‘lib qolishga tayyormiz**.

Siz, Janobi Oliylariga mustahkam salomatlik va Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lidagi g‘oyat mas’uliyatli va sharafli faoliyatingizda **ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz**.

Yuksak ehtirom bilan,

“Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilari

Termiz shahri, 2024-yil 17-oktabr

Oliy Majlis Senatida



PARLAMENTLARARO ALOQALAR YANADA FAOLLASHADI

Oliy Majlis Senatida “Mo‘g‘uliston – O‘zbekiston” parlamentlararo guruhi raisi S. Erdenebat boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Muloqot davomida “Mo‘g‘uliston – O‘zbekiston” parlamentlararo guruhi doirasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalarini faollashtirishga alohida e’tibor qaratilib, O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasidagi parlamentlararo munosabatlarni yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, ikki mamlakat rahbarlarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa’y-harakatlari natijasida oxirgi yillarda O‘zbekiston Respublikasi va Mo‘g‘uliston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi.

O‘z navbatida, S. Erdenebat Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va hududiy vakillik organlariga saylovlar yuqori saviyada tashkil etilganini ta’kidlab, ushbu jarayonlarning barcha bosqichi shaffof, ochiq va xolis o‘tganini hamda xalqaro demokratik standartlarga muvofiqligini bildirdi. Ayni chog‘da u parlament saylovi yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy muhitda o‘tkazilganini urg‘uladi.

Uchrashuv yakunida ikki davlat parlamentlari o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish hamda “Mo‘g‘uliston – O‘zbekiston” parlamentlararo guruhi doirasidagi hamkorlikni yanada faollashtirish, shuningdek, keng ko‘lamli hamkorlikka xizmat qiladigan aniq tadbirlar rejasini ishlab chiqish to‘g‘risida kelishuvga erishildi.

“Xalq so‘zi”.

HOKIMLIKKA NOMZODLAR MAHALLIY KENGASHLARGA HUDUDNI RIVOJLANTIRISH DASTURINI TAQDIM ETADI

Keyingi yillarda hududlarni rivojlantirish borasida mahalliy Kengashlarning rolini yanada oshirish, vakillik organlari nazoratining yangi shakllarini joriy etish, hokimlarning mahalliy Kengash oldidagi mas’uliyati va hisobdorligini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar tizimli ro‘yobga chiqarilmoqda.

Yangi Qonun

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari hamda ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilgani hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ijrosini ta’minlashda muhim qadam bo‘ldi.

Shu bilan birga, mahalliy Kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratilib, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ustidan xalq deputatlari Kengashlarining nazorat funksiyalarini kengaytirish maqsadida ularga o‘ndan ortiq qo‘shimcha vakolatlar berildi.

2

OLMALIQNING ISTIQBOLLI LOYIHALARI







Tashrifdan so‘ng

Jonajon O‘zbekistonimiz Markaziy Osiyoda tabiiy-geografik qulaylikka va beqiyos yer osti boyliklariga ega jannatmonand diyor. Zaminimizda tabiiy gaz, qo‘ng‘ir va tosh ko‘mir, oltin, mis, volfram, vismut hamda ochiq neft konlari zaxirasi mo‘l-ko‘lligi esa yurtimiz taraqqiyotiga muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Birgina Toshkent viloyatining Olmaliq hududi qadimdan ma’danlarga boy zamin sifatida qadrlanganini eramizning IX – XII asrlariga taalluqli ko‘plab noyob topilmalar va ruda qazuvchilar faoliyatining izlaridan ham payqash qiyin emas. Ular Olmaliqda asrlar davomida mis, qo‘rg‘oshin, rux, oltin, kumush, kvars va boshqa qimmatbaho metallar jadal qazib olinganidan dalolat beradi. Bugungi kunda Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida ishlov beriladigan deyarli barcha ma’dan o‘z vaqtida o‘sha qadimgi konlar izlari bo‘yicha ochilgan.

2

MSK

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASI

NATIJALAR RASMAN TASDIQLANDI

Xabaringiz bor, joriy yilning 27-oktabr kuni mamlakatimizda yirik siyosiy tadbir – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar, tuman hamda shahar Kengashlariga saylovlar milliy qonunchilik va xalqaro talablar darajasida bo‘lib o‘tdi. Yurtimiz tarixida birinchi marotaba aralash saylov tizimi asosida o‘tgan parlament saylovlari saviyasi xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e’tirof etilayotgani, ayniqsa, diqqatga sazovor.

Ushbu tizimning joriy etilishi siyosiy partiyalar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirib, jamiyatdagi demokratik jarayonlarga yangicha sur’at bag‘ishladiki, bu saylovoldi tashviqoti va saylovlar davomida o‘zining yaqqol tasdig‘ini topdi. Ayni chog‘da saylovlarni 65 ming ziyod mahalliy hamda 850 dan ortiq xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar kuzatib borgani, shuningdek, jarayonlarni mingdan ziyod mahalliy va xorijiy OAV vakillari keng yoritgani ham ushbu tadbirning nechog‘li yuksak saviyada tashkil etilgani va ochiq-oshkora tarzda o‘tkazilganini ko‘rsatib turibdi.

Joriy yilning 28-oktabr kuni Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovlarning dastlabki natijalari e’lon qilindi.

Kecha o‘tkazilgan Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisida esa saylovchilar ro‘yxatiga kiritilgan fuqarolarning 74,72 foizi saylovlarda ishtirok etgani hamda unda qatnashgan siyosiy partiyalarning har biri ovoz berishda ishtirok etganlarning 7 foizidan ko‘p ovoz to‘plagani bois 2024-yil 27-oktabrda bo‘lgan yagona saylov okrugi bo‘yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovi o‘tgan va haqiqiy deb topildi.

Shundan so‘ng majlisda hududiy saylov komissiyalarining siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarni aniqlash to‘g‘risidagi bayonnomalariga asosan yagona saylov okrugi bo‘yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov natijasini aniqlash va deputatlik mandatlarini siyosiy partiyalar o‘rtasida taqsimlash to‘g‘risidagi masala muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan yagona saylov okrugi bo‘yicha Qonunchilik palatasiga saylov natijalari va deputatlik o‘rinlarini siyosiy partiyalar o‘rtasida taqsimlash Saylov kodeksining 96/1-moddasiga asosan amalga oshirildi. Boshqacha aytganda, saylovda ishtirok etgan saylovchilar ovozlarining yetti va undan ko‘proq foizini olgan barcha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarning soni yetmish beshga bo‘lingan holda saylov koeffitsiyenti aniqlab chiqildi hamda siyosiy partiyalar to‘plagan ovozlar soni saylov koeffitsiyentiga bo‘lindi.

2

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 30-oktabr

NATIJALAR RASMAN TASDIQLANDI

1 Yagona saylov okrugi bo‘yicha Qonunchilik palatasi saylovida deputatlik o‘rinlari siyosiy partiyalar o‘rtasida shunday taqsimlandi:

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 26 ta, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 14 ta, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi 13 ta, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 12 ta, O‘zbekiston Ekologik partiyasi 10 ta deputatlik o‘rniga ega bo‘ldi.

Majlisda ushbu taqsimotga asosan Markaziy saylov komissiyasining bayonnomasi rasmiylashtirildi va tegishli qaror bilan tasdiqlandi.

Mazkur qarorda deputatlik mandatlari taqsimlangan siyosiy partiyalar va partiya ro‘yxati bo‘yicha saylangan deputatlarga xabarnomalar yuborish ham ko‘zda tutilgan. Shundan keyingina Markaziy saylov komissiyasi ularni Qonunchilik palatasi deputati sifatida ro‘yxatga oladi.

“Xalq so‘zi”.

MISSIYA XULOSALARI VA E’TIROF

Kuni kecha Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga saylovlarni kuzatish bo‘yicha missiyasi vakillari ishtirokida matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi.

Anjuman

Tadbirda missiya rahbari Duglas Ueyk hamda YXHT maxsus koordinatori va qisqa muddatli kuzatuvchilari yetakchisi Azay Guliyev tomonidan missiyaning O‘zbekistondagi saylovlar jarayonini kuzatish bo‘yicha xulosalari taqdim etildi.

Missiya rahbari 2017-yildan buyon O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholashini alohida ta’kidladi. Missiya vakillari respublikamizning 14 ta hududida bo‘lib, ovoz berish jarayonlarini bevosita kuzatdi. Saylov uchastkalarida nomzodlar haqidagi to‘liq ma’lumotlar taqdim qilingan. Saylovlar jarayoni xalqaro standartlarga mos ravishda, shaffof va ochiqlik muhitida o‘tdi.

Ta’kidlanganidek, 2023-yil dekabrda saylov qonunchiligiga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi, yangi Saylov kodeksi qabul qilindi. Saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish arafasida ishga tushirilgan “Ye-saylov” axborot tizimi esa saylov jarayonining ko‘plab tartib-taomillari raqamlashtirilishiga hamda byurokratik to‘siqlarni keskin kamaytirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, yurtimiz tarixida ilk bor Toshkent shahridagi qator saylov uchastkalarida saylov kuni elektron ovoz berish tajriba-sinov tariqasida yo‘lga qo‘yilgani ham aytib o‘tildi.

– Bu yangilanish va o‘zgarishlardan kelib chiqib, saylovlarga yuqori darajada tayyorgarlik ko‘rilganini e’tirof etamiz, – dedi YXHT maxsus koordinatori va qisqa muddatli kuzatuvchilari yetakchisi Azay Guliyev.

O‘z navbatida, bu galgi saylovlarda ayollar uchun gender kvotasi 30 foizdan 40 foizga oshirilgani va nogironligi bo‘lgan fuqarolarning ishtiroki missiya vakillari tomonidan ijobiy baholandi.

Matbuot anjumanida O‘zbekiston saylov qonunchiligi izchil rivojlantirilib, saylovlarga texnik jihatdan puxta tayyorgarlik ko‘rilgani alohida urg‘ulandi.

“Xalq so‘zi”.

HOKIMLIKKA NOMZODLAR MAHALLIY KENGASHLARGA HUDUDNI RIVOJLANTIRISH DASTURINI TAQDIM ETADI

1 Prezidentimiz tomonidan shu yil 17-oktabr kuni imzolangan “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun mahalliy ijro etuvchi va vakillik hokimiyatining bo‘linishi prinsipiga oid konstitutsiyaviy kafolatlarni qonunchilikda aks ettirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ma’lumki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi belgilangan. Shu sababli mazkur qonun bilan viloyat, tuman, shahar hokimi bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik hokimiyatini boshqarishi vakolati bekor qilinib, faqat viloyat, tuman va shaharning ijro etuvchi hokimiyatiga boshchilik qilishi belgilandi.

Mazkur norma xalq deputatlari Kengashi faolligini oshiradi, jamiyatning vakillik demokratiyasiga ishonchi va buning ta’sirida siyosiy faolligi, mahalliy davlat boshqaruvi jarayonlaridagi ishtirokini kengaytiradi. Mahalliy Kengashlar faoliyati, avvalambor, mahalliy aholi manfaatlaridan kelib chiqib qarorlar qabul qilishga yo‘naltirilsa, hokimning faoliyati esa mazkur qarorlarni ijro qilishga qaratiladi.

Qonun bilan Kengashlar yig‘ilishlarida hokim nomzodi ko‘rib chiqilayotganida nomzod mahalliy Kengash deputatlariga hududni rivojlantirish dasturini taqdim etishi shartligi belgilandi. Mahalliy Kengashlarning nazorat tadbirlarini amalga oshirishdagi imkoniyatlari “Kengash so‘rovi”, “Kengash tekshiruvi” kabi ta’sirchan institutlarni joriy etish hisobiga kengaydi.

Bundan tashqari, mahalliy Kengash va hokim qabul qiladigan hujjatlar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan imzolanadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimida (e-qaror.gov.uz) ro‘yxatdan o‘tkazilishi, unda ro‘yxatdan o‘tkazilmagan hujjatlar hech qanday huquqiy oqibatlarga olib kelmasligi mustahkamlanmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, qonundagi hokim va mahalliy Kengash raisi vazifalarining ajratilishi bilan bog‘liq qoidalar viloyatlar va Toshkent shahrida 2024-yilgi saylovlar yakunlari bo‘yicha, tuman va shaharlarda esa 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi.

Mazkur qonundagi normalar hududlarda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga, ijro organlari ustidan mahalliy Kengashlar va ular deputatlarining vakillik nazoratini kuchaytirishga, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yishga asos bo‘ladi.

Sherzod TO‘XTASHEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.





OLMALIQNING ISTIQBOLLI LOYIHALARI

Tashrifdan so‘ng E’tiborli voqelik

Ayni paytda Olmaliqda “Yoshlik-I” konini o‘zlashtirish loyihasi amalga oshirilyapti. Ushbu konni ochishga bo‘lgan amaliy sa’y-harakatlar 2017-yilda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan edi. O‘sha yillari Olmaliq zaminidagi mis zaxiralari kamida 16 mln. tonnaga teng deb taxmin qilingan bo‘lsa, bugungi hisob-kitoblar bu zaxiralar miqdori 45 mln. tonnadan ziyod ekanini ko‘rsatmoqda. Albatta, bemisl yer osti boyliklariga ega ekanimiz mamlakatimiz istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir quvonarli jihat shundaki, oxirgi olti yilda misni chuqur qayta ishlash hajmi muttasil oshib bormoqda. 2018-yilda 22 ming tonna, 2023-yilda 82 ming tonna mis qayta ishlandi. 2024-yilda bu hajm ilk bor 100 ming tonnadan oshyapti. Davlatimiz rahbari Olmaliqdagi mazkur yirik loyihaning tashabbuskori sifatida o‘tgan yillar mobaynida bir necha bor bu yerga tashrif buyurdi. Prezidentimiz Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga joriy yilning 15-oktabrdagi tashrifi davomida sanoat tarmoqlari uchun “Muhandislarni tayyorlash maktabi” hamda “Yoshlik-I” konini o‘zlashtirish ishlari bilan tanishdi, misni boyitish bo‘yicha yangi quvvatlar qurilishiga start berdi va bu e’tiborli voqelik sifatida tarixga muhrlandi.

Binobarin, bu tabiiy resurslardan qancha oqilona foydalansak, iqtisodiy imkoniyatlarimiz ham shuncha kengayadi. Shu bois davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatimizda kon sanoatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kon-metallurgiya va mis sanoatini yanada taraqqiy ettirish borasida yirik investitsiyalar keng jalb qilinayotgani yutuqlarga omil bo‘lmoqda.

– Davlatimiz rahbarining Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga tashrifi, xususan, bizning misni boyitish fabrikamiz faoliyati bilan tanishuvi iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qilish, moddiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta’minlashga qaratilayotgan e’tiborning yaqqol ifodasi bo‘ldi, – deydi 3-misni boyitish fabrikasi direktori Erkin Ortiqboyev. – Prezidentimiz bilan kechgan uchrashuvda o‘zimiz uchun qator vazifalarni belgilab oldik. Yangi fabrikamizda yuqori samaradorlikka ega, ekologik xavfsiz va tejamkor texnologiyalar qo‘llanilayotgani yuqori baholandi. Shu jihatdan olganda, bugun bunyodkorlik ishlari jadal sur’atlarda davom etmoqda. Fabrika yiliga 60 mln. tonna ma’danni qayta ishlash quvvatiga ega bo‘ladi. Bu orqali yiliga 917 ming tonna mis va 1,5 ming tonna molibden konsentratlari olinadi. Ishlab chiqarish uch bosqichli maydalash va ikki bosqichli g‘alvirlash jarayonlari orqali amalga oshiriladi.

Bugun dunyoda “yashil” iqtisodiyot, elektr texnikasi, elektromobillar sanoati jadal rivojlanayotgani hisobiga 2030-yilga borib mis mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj 40 foizga ortishi kutilmoqda. Bu esa bizning zimmamizga yanada katta mas’uliyat yuklaydi. Shubhasiz, mamlakatning rivojlanishi, geosiyosiy maydonda o‘z so‘ziga ega bo‘lishida uning iqtisodiy qudrati muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda izchil olib borilayotgan islohotlar natijasida yangi O‘zbekiston rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tishning ustuvor vazifalari davlatimiz rahbarining hududlarga tashriflarida belgilab berilmoqda.



Tabiiy resurslar iqtisod qilinmoqda

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati mamlakatimizdagi eng yirik sanoat korxonalaridan biri bo‘lib, uning ishlab chiqarish quvvati Toshkent, Jizzax, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan mis, qo‘rg‘oshin, rux, oltin va kumush konlarida qazib olinayotgan xomashyoni qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan. 35 ming nafarga yaqin konchi-metallurglarni birlashtirgan mazkur kombinatda 40 dan oshiq millat va elat vakillarining ahil mehnat qilayotgani ham yutuqlarga muhim omil hisoblanadi. Zotan, ona zaminimiz bag‘ridagi nodir, rangli va qimmatbaho metallarni qazib olishga hamda ularni qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan ushbu kombinat konlaridan qazib olinayotgan ma’danlar tarkibida Mendeleev davriy jadvalidagi elementlarning deyarli to‘rtdan biri mavjud.

– Prezidentimizning tashrif davomida bergan ko‘rsatma va tavsiyalari asosida zavodimiz faoliyatini yanada takomillashtirish ustida ish olib boryapmiz, – deydi “Olmaliq KMK” AJ tarkibidagi Ohak zavodi direktori Abduqahhor Qo‘shaqov. – Zavodimizda karbonatli jinslarni gorizontal aylanuvchan pechda kuydirish hisobiga so‘ndirilmagan kuydirilgan ohak ishlab chiqariladi. Korxonamiz tarkibida karbonatli tog‘ jinslarini qazib olish ishlari olib boriladigan “Sovuqbuloqsoy” karyeri, yanchish-saralash bo‘limi, xomashyolar ombori, kuydirish bo‘limi va tayyor mahsulotlar ombori mavjud. Bundan tashqari, ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatuvchi transformator podstansiyasi, qozonxona, ta’mir ustaxonasi, moddiy-tovar boyliklari omborxonasi, olovbardosh materiallar ombori kabi yordamchi xizmatlar faoliyati ham yo‘lga qo‘yilgan.

Ayni kunlarda yangi ikkinchi liniya pechini qurish ishlari jadallikda olib borilmoqda. Ushbu pech ishga tushirilishi bilan qo‘shimcha ravishda sutkasiga 240 tonna miqdorda ohak ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Ikkinchi liniya pechini ohaktosh bilan ta’minlash maqsadida “Sovuqbuloqsoy” karyeri hududini kengaytirish ishlari rejalashtirilgan. Bu borada Prezidentimiz tavsiyasi asosida yangi loyiha ishlab chiqilmoqda. Barcha ishlab chiqarish uskunalarining bir maromda ishlashi va o‘z vaqtida rejaga muvofiq ta’mirlanishi, tabiiy resurslarni iqtisod qilish va ikkinchi liniya pechini qurish ishlarida faol qatnashayotgan korxonaning bosh muhandisi Zikrilla Xolmirzayev hamda yetakchi muhandis-xodimlar – Sobirjon Isoqov, Akrom Raimqulov, Alimardon Umaraliyev, Jo‘rabek Jiyanov va boshqalarning o‘rni beqiyos.

Yilning o‘tgan to‘qqiz oyi natijalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, zavodimiz jamoasi tomonidan 94 980 kubometr miqdorida ohaktosh qazib olinib, 65 160 tonnadan ziyod kuydirilgan so‘ndirilmagan ohak ishlab chiqarildi va iste’molchilarga jo‘natildi.

“Kombinatda ishlab chiqarilayotgan oltin va kumush London qimmatbaho metallar birjasining sifat belgisiga, ya’ni “Yaxshi yetkazib beruvchi” maqomiga ega. Mis ishlab chiqarish jarayonida sifat tizimi menejmenti joriy etilib, unga Xalqaro muvofiqlik sertifikati olingan.

– Natijalarimiz bundanda salmoqli bo‘lishi uchun yangicha ruh va g‘ayrat bilan mehnat qilyapmiz, – deya davom etadi Abduqahhor Qo‘shaqov. – Kombinat ehtiyojlari uchun professional muhandis-texnik xodimlarni qayta tayyorlash maqsadida “Muhandislik maktabi” barpo etildi. Maktabni loyihalash Germaniyaning “Aurubis” kompaniyasining o‘quv markazi namunasida amalga oshirildi. “Muhandislik maktabi”da geologiya, konchilik ishi, kon sanoati transportlari, marksheyderlik ishi, foydali qazilmalarni boyitish, metallurgiya, mexanika, energetika, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish yo‘nalishlarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar o‘qitiladi.

– Prezident tashrifi biz uchun tarixiy kun bo‘ldi, – deydi “Muhandislar maktabi” direktori Bekzod Salimov. – Davlatimiz rahbari o‘quv markazimizga kelib shart-sharoitlarni ko‘rdi, tinglovchi va o‘qituvchilar bilan suhbatlashdi. Zimmamizga juda katta vazifalar qo‘ydi, o‘z ustimizda izlanish va o‘quv samaradorligini oshirish muhimligini ta’kidladi. Yirik korxonalar bazasida xuddi shunday maktablarni tashkil etib, mutaxassislar malakasini oshirish muhimligini aytib o‘tdi. Ayniqsa, raqamlashtirish tizimini jadallashtirish lozimligini va busiz taraqqiyot yo‘qligini alohida uqtirdi.

Uzoq muddatli modernizatsiya dasturi

Kombinatda Frayberg texnika universiteti konchilik akademiyasi, “Aurubis AG” va “GP Gnter Papenburg AG” kompaniyalarining kadrlarni tayyorlash bo‘yicha dual ta’limga mo‘ljallangan metodologiyalari asosida mahalliy mutaxassislar va xorijiy hamkorlar ishtirokida o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan.

2024-yilda “Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligi Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining uzoq muddatli kredit reyting ko‘rsatkichini “VB-” barqaror darajasida tasdiqladi. Bu esa boshqaruvga zamonaviy korporativ uslublar joriy etilishiga hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalarni kombinatni modernizatsiya qilish uchun jalb etishga keng imkon yaratadi.

Kombinatda ishlab chiqarilayotgan oltin va kumush London qimmatbaho metallar birjasining sifat belgisiga, ya’ni “Yaxshi yetkazib beruvchi” maqomiga ega. Mis ishlab chiqarish jarayonida sifat tizimi menejmenti joriy etilib, unga Xalqaro muvofiqlik sertifikati olingan. Ushbu muvofiqlik sertifikati kombinatning Jizzaxdagi sement ishlab chiqarish jarayoniga ham berilgan.

Metallurglar, konchilar va qimmatbaho metall qazib olish sohasining yetuk olimlari ishtirokida ekspertlar guruhi tashkil etilgan bo‘lib, ular tomonidan Olmaliq kon-metallurgiya kombinatini uzoq muddatda modernizatsiya qilish bo‘yicha dastur ishlab chiqildi. Unda qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish va qayta ishlashga ilg‘or xorijiy tajribani joriy qilish ko‘zda tutilgan.

Hisob-kitoblarga ko‘ra ushbu dasturni tatbiq etish uchun 502 mln. dollardan ortiq mablag‘ yo‘naltiriladi. Bu esa yiliga mis ishlab chiqarish hajmini 109 ming tonnadan 148,5 ming tonnagacha, rux metallini ishlab chiqarishni 78 ming tonnadan 120 ming tonnagacha, oltingugurt kislotasi ishlab chiqarishni 1,4 barobar – 618,3 ming tonnadan 873,9 ming tonnagacha oshirish imkonini beradi. Oltin qazib olish hamda qayta ishlash avvalgi yillardagiga nisbatan 1,2-marta, kumush 1,64-marta ortadi. Mahsulotlarni sotishdan olinadigan daromad 1,5 barobar ko‘payib, 12 trillion so‘mga yetadi. Davlat byudjetiga tushumlar hajmi ham 1,4 barobar oshib, 5 trillion so‘mni tashkil qiladi.

Hozirgi paytda “Raqamli OKMK – 2030” strategiyasi doirasida “Yoshlik-I” konini o‘zlashtirish va 3-mis boyitish fabrikasini qurish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, yangi metallurgiya majmuasini loyihalashtirish va qurish ishlari boshlanmoqda. Bunda kombinat investitsiya portfelining qiymati 15 mlrd. dollarni tashkil etadi. Mazkur loyiha O‘zbekiston tarixidagi eng yirik investitsiya loyihalaridan biridir. Uning amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati, O‘zbekistonning dunyodagi nufuzi va obro‘si yanada yuksaladi.

Faxriddin BOZOROV
(“Xalq so‘zi”).

Umumta’lim maktablarida kuzgi ta’til 4-noyabrdan boshlanadi.



Mushohada

YO‘LAKLAR TO‘SIQSIZ BO‘LSA...

Bir necha kun avval bankka,undan so‘ng tumandagi gaz va elektr bilan bog‘liq tashkilotlarga,uyga qaytishda esa savdo markaziga kirib ayrim ishlarni hal qilishga to‘g‘ri keldi. Ishim tig‘izligi va qarovchi yo‘qligi uchun yosh bola bilan yayov otlandim. Katta yo‘lga chiqmasdanoq,xato qilganimni angladim. Sababi ortimda ikkita mashina paydar-pay signal chalib turardi. Bolalar aravachasi bilan mashinalarni o‘tkazmay qo‘yibman. Atay qilmadim,albatta. Axir piyodalar yo‘lagi risoladagidek bo‘lmagan joyda qayerdan yurishni ham bilmay qolarkan odam. Borishda ham,kelishda ham ancha sarson bo‘ldim... Shunday bo‘lishini bilganimda g‘iz etib mashinada borib kelar ekanman.

“Nega bir qadam joyga ham mashinada borasiz?” degan savolimga qo‘shni ayolning homuza tortib bergan javobi o‘ylantirib qo‘ydi. O‘zim-chi, bir necha bor noqulaylik tug‘dirgani uchun bolalar aravachasi bilan uzoqroqqa bormayman.

...Yaqinda oyinai jahon telekanallarining birida “Mehrli qo‘llar” degan hind filmi namoyish etildi. Filmning mavzusi dolzarb. Ya’ni nogironligi bor insonlar uchun yaratilgan sharoitlar haqida. Unda obrazlar shu qadar samimiy va ishonarli tasvirlanganki, beixtiyor qahramonlar bilan yonma-yon yashay boshlaysiz, ularning dardu tashvishiga, o‘y-xayollariga sherik bo‘lasiz. Filmda tadqiqot uchun Amerikadan Kalkuttaga kelgan yosh tadqiqotchi nogironlik aravachasidagi yigitdan “Sen dunyoda nimani istaysan?” deb so‘raydi. “Hamma joyda panduslar bo‘lsa...”, deb javob beradi yigit...

Darhaqiqat, panduslar nafaqat bolalar aravachasi uchun, balki yurish imkoniyati cheklangan insonlar uchun ham nihoyatda zarur.

– Nishabli yo‘laklar, ya’ni panduslar zinalarga qaraganda uch-to‘rt barobar katta maydon egallaydi. Bino zinapoyasining u yoki bu tarafida pandus bo‘lishi umumiy qurilish sarf-xarajatlarining ortishiga sabab bo‘ladi, – deydi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktoranti Madina Qo‘chqorova. – Shu bois ayrim quruvchilar loyihalashda nishabli yo‘laklarni “unutib” qo‘yishadi. Shuni ta’kidlash kerakki, shaharsozlik qoidalarida turarjoylar, savdo va ko‘ngilochar markazlar, umumfoydalanuvdagi inshootlarda imkoniyati cheklangan shaxslar, keksalar va yosh bolalilar uchun panduslarni loyihalash, qurish yoki o‘rnatish belgilab qo‘yilgan. Panduslar odamlar harakatlanishini osonlashtirgani bois bugunga qadar uning bir necha turi ishlab chiqilgan. Statsionar, ko‘tarma, yig‘ma panduslar orasida xorij tajribasidan ko‘rinadiki, eng ommalashgani yig‘ma panduslar hisoblanadi.

> Aslida ularni bino va inshootlarga o‘rnatish yoki yangi obyektlarning qurilish rejasiga kiritish hal qilib bo‘lmaydigan muammo emas. Hozir panduslarning bir necha turlari yaratilgan. Ehtiyoj bo‘lgandagina foydalanish uchun optimal bo‘lgan, yig‘iladigan va ko‘tariladigan panduslar zinalarda ko‘p joy egallamaydi. Katta mablag‘ ham talab etmaydi. Faqat jamiyatda turli toifadagi insonlar yashashini, ularning ham boshqalar qatori haq-huquqlari borligini inobatga olish, qisqacha aytganda, ularni ta’minlab qo‘yish uchun sinchkov bo‘lish kifoya.

– Panduslarni loyihalash va qurishda o‘ziga yarasha talablar mavjud. Ba’zan xususiy xizmat ko‘rsatish, tadbirkorlik yoki savdo shoxobchalarida “xo‘jako‘rsin”ga qilingan panduslarga duch kelasiz. Nishablik 10 – 12 foizdan baland panduslar foydalanish uchun nihoyatda noqulaylik tug‘dirsa, kengligi talab darajasida qilinmagan, tor va maxsus jihozlanmagan panduslardan yurilganda xavf karrasiga ortadi. Mutaxassis sifatida quruvchilardan talab va qoidalarga muvofiq ish tutishlarini so‘ragan bo‘lardim, – deya qo‘shimcha qildi M. Qo‘chqorova.

Birgina poytaxtimiz ko‘chalarini o‘rganib chiqing, joylarda qanchalab aholi panduslarga ehtiyoj bilan yashayotganini bilib olasiz. Boshlanishi chiroyli ko‘ringani bilan oxiriga yetmagan piyodalar yo‘laklari yoxud ular uzilib, birdan baland zina chiqib qolishi, tekis va kengroq yo‘llarda esa mashinalar bostirib kelishi... Bulardan o‘tib olish sog‘lom kishilar uchun osondir. Biroq shundoq ham bir falokatni boshlamay deb yurak yutib ko‘chaga chiqqan aravachadagi kishiga jismoniy mashaqqat bilan birga xijolatomuz kayfiyat bag‘ishlaydi.

Misol uchun, bir ayolning bolalar aravachasi g‘ildiragi jamoat transporti hisoblangan metrodagi panduslarga to‘g‘ri kelmadi. Sal yurgizgani hamon pandus devorlariga tiqilib qolaverdi. Keyin yo‘lovchilarga iltimos qilishiga, uni ko‘tarib olib chiqib berishlariga to‘g‘ri keldi. Boshqa joylarda esa o‘zi bolani ham, aravachani ham ko‘tarib, yo‘lni davom ettiradi.

Katta ko‘chalarda mashinalarga xalal bermaslik, yanayam xavfsizlikni o‘ylab yo‘laklarga o‘zingizni urasiz. Undagi noqulayliklar esa charchatib yuboradi. Hatto ba’zi davlat tashkilotlarida ham pandus masalasi badastir yaratib qo‘yilgan emas. Yaxshiki, ayrim mahallalarda risoladagidek to‘siqlarsiz “Salomatlik yo‘laklari” barpo etilayotganiga guvoh bo‘ldik. Bordik, yurib ko‘rdik. Zo‘r! Qani endi, hamma yo‘laklar shunday, to‘siqlarsiz va ravon bo‘lsa...

Nargiza YUNUSOVA
(“Xalq so‘zi”).



Dang‘ara tumani ramziy ma’noda Farg‘ona vodiysi darvozasi deyiladi. Qamchiq dovonidan tushib kelaverishda tumanning o‘ziga xos tabiati,obod va fayzli qishloqlari,katta yo‘l bo‘ylab turnaqator tizilib turadigan non,savdo rastalari har qanday yo‘lovchini o‘ziga tortadi.

Mulohaza

Dang‘ara tumani bepoyon o‘rmon xo‘jaliklari, asrlar mobaynida tabiiy holda saqlanib kelayotgan tabiat yodgorliklari bilan ham mashhur. Shu bois hududdagi har bir maskan o‘z tarixiga ega ekani bilan ahamiyatlidir.

Xobbobo ziyoratgohini mahalliy aholi “laylakmozor” deb ham ataydi. Sababi, qishin-yozin ushbu qadrdon maskanni laylaklar tark etmaydi. Bu yerda yuzlab laylaklar uya qurib, ko‘payadi, polaponlarini uchirma qiladi. Ko‘llar, soylar bo‘yida o‘z rizqini terib yuradi.

– Laylaklar juft-juft bo‘lib yashaydi, juda ham oilaparvar, o‘z tug‘ilib o‘sgan makoniga sadoqatli bo‘ladi, – deydi ekologiya faoli Gulnoza To‘xtasinova. – Qolaversa, laylaklar yurt fayzi va barakasi, tinchlik ramzi sifatida ham e’zozlanadi. Keyingi yillarda yurtimizning cho‘l-dasht hududlarida laylaklarning ko‘payib borayotgani quvonarlidir.

E’tiborlisi, laylaklar, asosan, to‘rong‘i daraxtiga in quradi. Bu daraxt inson qo‘li bilan ekilmaydi, u tabiiy holda ko‘payib, ko‘kka bo‘y cho‘zadi. Yashnab turganida kessangiz sersuvligi bois yuzingizga suvi sachraydi, lekin kesilgandan keyin hatto mix o‘tmaydigan darajada zarang bo‘lib qotib ketadi.

To‘rong‘i ba’zan qisqa muddat ifor taratib, ajoyib gullaydi. Barglari qip-qizil rangga burkanib to‘kiladi...

Dang‘ara kabi xushmanzara va fayzli hududlarni bugun sayyohlar intiladigan turistik manzillarga aylantirish mutasaddilar va tadbirkorlar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Botir MADIYOROV
(“Xalq so‘zi”).

O‘zimizning mahsulot

LALMI TARVUZLARI BILAN MASHHUR SHO‘RQUDUQ

Ko‘kdala tumanining Sho‘rquduq qishlog‘i Samarqand viloyati bilan chegaradosh hududda,pastqam adirliklar bag‘rida joylashgan. Keyingi yillarda sho‘rquduqlik dehqonlarning lalmi tarvuz yetishtirishi,uni tabiiy usulda uzoq muddat saqlash tajribasi orqali qishloq nomi ko‘pchilikning tiliga tushmoqda.



Ayni paytda hudud dehqonlari lalmikor dalalardagi tarvuz hosilini yig‘ib, uni saranjomlash bilan band. Shu qishloqlik nafaqadagi o‘qituvchi Bobomurzo Yaxshiboyevni ham dalada, ish ustida uchratdik. Uzoq yillar davomida hududdagi maktabda o‘quvchilarga matematika fanidan dars bergan muallim bugun farzandlari, nevaralariga bosh bo‘lib, ularga hosilni yig‘ish va aholi “tabiiy muzlatkich” deb ataydigan yerto‘lalarga joylashtirishga ko‘maklashayotgan ekan.

– Qishlog‘imizda lalmi tarvuz yetishtirish bir necha asrlardan buyon davom etib kelmoqda, – deydi u. – Bobolarimiz ham shu adirlarga ketmonda ishlov berib, tarvuz ekkan. Bugun imkoniyat katta. Texnikalar yordamida bir xo‘jalik 10 – 15 gektargacha lalmi tarvuz ekib, 40 – 50 mingta sara tarvuz olmoqda.

Dehqonlarning aytishicha, lalmi yerlarda tuproq unumdorligini saqlash uchun almashib ekish tizimiga qat’iy rioya qilish darkor. Masalan, fermer xo‘jaliklari bir yil ekin ekilgan maydonni kelgusi yil, albatta, damga qoldiradi. Yetarli kuch to‘plashi uchun yerni kech kuz yoki erta bahorda shudgorlab, kelgusi mavsumga tayyorlab qo‘yish lozim. Ana shu vaqt oralig‘ida bu yerda lalmi tarvuz yetishtirish mumkin. Ushbu poliz ekini yerning kuchini olmaydi. Aksincha, tuproq unumdorligini oshiradi. Shu bois bu faoliyatdan fermer xo‘jaliklari ham manfaatdor.

Yana bir jihati, lalmi tarvuz yetishtirish katta sarf-xarajat va mehnat talab qilmaydi. Masalan, lalmi tarvuzlar urug‘i ob-havo sharoitiga qarab, may oxirlari yoki iyun boshlarida ekiladi. Ekin unib quloch yozib qolgach, bir marotaba tagi yumshatib chiqiladi. Bor mehnati shu. Sentyabr oxiri, oktabr boshlariga borib, hosilni yig‘ib olaverasiz. Har gektar yerdan uch-to‘rt ming donagacha tarvuz olish mumkin.

– Bu tarvuzlar suvsiz, o‘g‘itsiz yetishtirilgani bois ta’mi nihoyatda shirin, – deydi Bobomurzo Yaxshiboyev. – Har yili ikki-uch mingtagacha sara tarvuzni kelgusi yilning aprel, may oylariga qadar saqlab, ichki bozorga yetkazib beramiz.

Qishloq odamlari tarvuz saqlashda yerto‘lalardan foydalanadi. Yerto‘la deganimiz adirlik bag‘ridan qo‘l kuchi bilan qazilgan, eni 3, balandligi 2-2,5, 40 – 50 metrgacha bo‘lgan g‘orsimon imorat. U yer sathidan 40 – 50 metr pastlikda joylashadi. Shu bois yozda sovuq, qishda iliq bo‘ladi. Qisqacha aytganda, qo‘lbola tabiiy “sovitkich”. Bu yerda uzoq saqlashga mo‘ljallangan har qanday qishloq xo‘jalik mahsulotini saqlash mumkin.

Ayni paytda qishloqdagi yerto‘lalar birin-ketin hosilga to‘lmoqda. Bu yerda saqlanayotgan tarvuzlar qish, bahor oylariga borib ichki bozorga yetkazib beriladi. Undan keladigan daromad kam bo‘lmasligini hisobga olsak, yerto‘ladagi tarvuzlar tez orada haqiqiy xazinaga aylanishi muqarrar.

Jahongir BOYMURODOV
(“Xalq so‘zi”).

“Qalqama” suv ombori tadbirkorga ijaraga berildi

Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida joylashgan “Qalqama” suv ombori “E-auksion” platformasi orqali bo‘lib o‘tgan onlayn elektron savdosida g‘olib deb topilgan “Gissar effect” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga 10 yil muddatga ijaraga berildi.

Imkoniyat

Bu borada “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda MCHJ o‘rtasida uch tomonlama shartnoma imzolandi. Suv havzasi qonunchilikda ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lganida yana 10 yil muddatga uzaytirish huquqi bilan ijaraga berilgan.

Shartnomaga ko‘ra tadbirkorga suv havzasini yilda ikki marotaba baliqlantirish, belgilangan miqdorda baliq ovlash hamda investitsiya kiritish majburiyatlari yuklatildi.

Ma’lumot o‘rnida, “Qalqama” suv omborining umumiy maydoni 150 gektarni tashkil etadi.

“Xalq so‘zi”.



YANGILIKLAR xabarlar

TAFSILOTLAR

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi xitoy tilida ilk bor chop etildi

O‘zbekistonning Pekindagi elchixonasi tashabbusi bilan Taraqqiyot strategiyasi markazi hamkorligida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi xitoy tilida ilk bor risola shaklida chop etildi.



Xitoy markaziy millatlar universiteti dotsenti Dilsora Mirzaahmedova tomonidan tarjima qilingan ushbu qo‘llanma Xitoyning siyosiy, ilmiy-tahliliy, ishbilarmon doiralari hamda keng jamoatchiligini “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida yurtimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni va ularning mazmun-mohiyati bilan tanishtirishga mo‘ljallangan.

Shuningdek, mazkur risola elchixona tomonidan o‘tkazilayotgan davra suhbatlari, uchrashuvlar, brifinglar hamda taqdimotlarda keng tarqatilishi ko‘zda tutilgan.

Belarusda o‘zbek she’riyati kechasi

“Dunyo” axborot agentligining xabar berishicha, O‘zbekistonning Belarusdagi elchixonasi tashabbusi bilan Grodno viloyatining Ya. F. Karskiy nomidagi ilmiy kutubxonasida O‘zbek tili bayrami kuniga bag‘ishlab o‘zbek she’riyati kechasi o‘tkazildi.




Unda Belarus Yozuvchilar uyushmasining Grodno viloyati bo‘linmasi, hududiy ijroiya qo‘mitasining madaniyat boshqarmasi vakillari, faol vatandoshlar, shuningdek, o‘zbek adabiyoti va she’riyati ixlosmandlari ishtirok etdi.

Tadbirda o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf ijodiga oid taqdimotlar o‘tkazildi. Ular yozgan g‘azal va she’rlardan namunalar tinglandi.

Belarusda o‘zbek tili va adabiyoti ixlosmandlari o‘rtasida ona tilimizning xalqaro nufuzi, mavqei, jozibadorligi va imkoniyatlarini keng targ‘ib qilish maqsadida ishtirokchilarga o‘zbek xalqining madaniyat arboblari, shoir va yozuvchilarining portretlari hamda o‘zbek adabiyotining eng sara asarlari jamlangan nasriy va she’riy kitoblar taqdim etildi.

Yangi quvvatlar tejamkor va samarali

“Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan umumiy quvvati 1065 MVt bo‘lgan ikkita bug‘-gaz qurilmasi barpo etilmoqda.



Ilg‘or texnologiyalar asosida qurilayotgan ushbu yangi quvvatlar to‘liq ishga tushirilgach korxona yiliga qo‘shimcha qariyb 8 milliard kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi.

Yuqori tejamkor texnologiyalarni qo‘llash hisobiga yiliga 600 million kub metrga yaqin tabiiy gaz tejalishiga erishiladi. Korxonada yuzdan oshiq ish o‘rinlari yaratiladi.

Ayni paytda loyiha qurilishida 2 ming 500 dan ziyod ishchi-xodimlar mehnat qilmoqda. Ularning 368 nafari xorijiy mutaxassislardir.

“Jadidlar izidan”

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan “Jadidlar izidan” respublika tanlovini tashkil etish va o‘tkazish jarayonlariga bag‘ishlangan matbuot anjumani o‘tkazildi.

Ilk marotaba joriy yilning oktabr – dekabr oylarida bo‘lib o‘tadigan ushbu tanlovda ishtirok etish uchun “jadidlarizidan.uz” platformasi orqali 364 906 ta ariza kelib tushgan.

Ta’kidlanganidek, tanlov o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini yanada shakllantirish, ularni ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish orqali kitobxonlikka jalb etishda muhim o‘rin tutadi.

“Xalq so‘zi”.

O‘zbekistonda doimiy aholi soni har kuni o‘rtacha 2 ming kishiga oshmoqda.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 30-oktabr

HAYOTIY TASHABBUSLAR – MUSTAHKAM KELAJAK KAFOLATI

Yangi O‘zbekiston islohotlari – mamlakatimizning barcha sohasini zamonaviylashtirishga, aholi turmush darajasini oshirishga, jamiyatda totuvlik va barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar jarayonini o‘z ichiga olmoqda. Bu esa xorijlik ekspertlar tomonidan ham katta qiziqish va ijobiy baholarga sazovor bo‘lyapti. Ular bu islohotlarni mamlakatning kelajagi uchun muhim qadam, deb bilishmoqda.

Nuqtai nazar

Huquqiy davlat qurish yo‘lidagi dadil odimlar ham ularning diqqat markazidagi masalalardandir. Mamlakat iqtisodiyoti tobora yuksalayotgani va jamiyat uchun barqaror muhit yaratilayotgani zamirida qonun ustuvorligini ta’minlash, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish borasidagi amaliy harakatlar mujassamligi aytilmoqda.

O‘zbekiston jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni kengaytirishdagi sa’y-harakatlarida investitsiyalarni jalb qilish, texnologiyalarni o‘zlashtirish, kadrlar salohiyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratayotgani ta’kidlanyapti.

Darhaqiqat, ta’lim muassasalarini zamonaviylashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish yurt taraqqiyoti uchun muhim omil. Shu bois yangi O‘zbekiston islohotlarida yoshlar manfaati asosiy o‘rin tutmoqda, bu bilan esa mamlakat kelajagiga mustahkam poydevor yaratilmoqda.

Yoshlar – yangi fikrlar va g‘oyalar manbai. Ular yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtiradi, ijodiy fikrlaydi, muammolarni yangicha yechimlar bilan hal qilishga tayyor.

Navqiron avlodni jamiyatning faol a’zolari, deymiz. Bu bejiz emas. Chunki ular jamiyatda o‘zgarishlarni boshlashga, yangi loyihalar ijrosiga hamisha tayyor kuch sanaladi. Qolaversa, yosh avlod jamiyat rivojida faol ishtirok etishga hamma vaqt intiladi. Kelajagimiz egalari bugun ta’lim olib, malaka oshirmoqda. Ular ertaga yurtimiz rivojiga o‘z hissalarini qo‘shadigan yetakchilar bo‘lishadi. Shu bois yangi O‘zbekistonda yoshlarga o‘z imkoniyatlarini rivojlantirish uchun barcha sharoitni yaratish, ularni qo‘llab-quvvatlash va iste’dodlarini namoyon qilishi uchun yordam berishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda.

Ta’limdagi islohotlar va yangi imkoniyatlar

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi va sa’y-harakatlari natijasida ta’lim tizimida yillar davomida to‘planib qolgan muammolarga so‘nggi yetti yilda bosqichma-bosqich yechim topilmoqda. Xususan, jamiyatimizda pedagog maqomining nufuzi va obro‘si yuksalib boryapti. O‘qituvchi-pedagoglar va bolalar majburiy mehnatiga barham berildi. O‘qituvchi-murabbiylar mehnatiga haq to‘lash tizimi takomillashtirilib, ularning oylik maoshlari sezilarli darajada oshdi. Mazkur o‘zgarish va sharoitlar natijasi o‘laroq umumta’lim maktablariga erkak o‘qituvchilar qaytdi, yosh tadqiqotchilarning oliy o‘quv yurtlarida faoliyat olib borishga qiziqishlari ijobiy tomonga keskin o‘zgardi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz, xususan, yoshlar hayotida, ta’lim-tarbiya sohasida sezilarli o‘zgarishlarni qila oldi, desak, ayni haqiqat. Raqamlar ham haqiqatni ko‘rsatib turibdi. Prezidentimiz Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida soha vakillari



bilan ta’limda amalga oshirilayotgan ishlar, kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazgan muloqotida bu borada erishilgan yuksak marralar haqqoniy raqamlarda yana bir karra o‘z tasdig‘ini topdi. E’tibor bering, oxirgi yetti yilda maktabgacha ta’lim bo‘yicha qamrov darajasi 27 foizdan 76,4 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 42 foizga yetkazilgani, hech shubhasiz, sohada erishilgan eng muhim yutug‘imizdir. O‘qituvchilarga mahorati va erishgan yutuqlariga qarab to‘lanadigan ustamalar soni 3 tadan 17 taga oshdi. O‘z ustida astoydil ishlagan, xorijiy sertifikat olgan 6 ming nafar o‘qituvchi 10 million so‘mdan ziyod maosh olmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida ilmiy daraja, ilmiy unvonli, ilmiy loyihalarda ishtirok etuvchi professor-o‘qituvchilarning oylik maoshi esa 20 million so‘mdan yuqori bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy harakatga aylanganini alohida ta’kidladi. Yurtboshimizning e’tiroficha, ta’lim va ma’rifatni rag‘batlantirish ishiga hissa qo‘shayotgan insonlar siymosida biz jadid bobolarimizning munosib davomchilarini, ularning ushalayotgan orzu va intilishlarini, uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini ko‘ramiz.

Yana shuni ham aytish kerakki, Prezident muloqoti xushxabarlarga ham boy bo‘ldi. Galdagi rejalar, aniq maqsadlar xalqimizning porloq kelajakka bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamladi.

Ochiq muloqot davomida Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining 12 ta hududiy markazini zamonaviy qiyofaga keltirish va jihozlash vazifalari belgilandiki, bu xodimlar salohiyatini yanada oshirishga turtki bo‘ladi.

Alohida qayd etish joizki, o‘tgan vaqt mobaynida ta’lim-tarbiya sohasiga berilayotgan ulkan e’tibor tufayli ilmga chanqoq, yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan, bilim, fan va texnika, madaniyat va san’at, sport sohalarida yuksak marralarni qo‘lga kiritayotgan yigit-qizlarimiz safi kun sayin ortmoqda.

Ayniqsa, oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasidagi islohotlar yoshlarga yangi imkoniyatlar eshiklarini ochyapti. Ta’lim tizimining zamonaviylashtirilishi, xorijiy tillarni o‘rganish imkoniyatlarining kengayishi, ilmiy tadqiqot ishlariga qiziqishni oshirish, yoshlarni kasb-hunarlarga o‘rgatish uchun yangi markazlar tashkil etilishi yanada ko‘proq yoshlarning ilm va kadrlar bozoriga kirishiga yordam bermoqda.

Bugungi kunda yoshlar uchun ta’lim olish imkoniyatlari avvalgiga qaraganda ancha kengaydi. Yaqin o‘tmishni bir eslaylik. Yangi o‘quv yili boshlanishi bilan yuqori sinf o‘quvchilari, talabalar paxta dalalariga olib chiqilardi. Alohida dastur asosidagi ta’lim rejasi buzilar edi. Unga yetib olish uchun bir mashg‘ulotda uch-to‘rttalab mavzu o‘tilishiga majbur bo‘linardi. Bunday tartibda o‘tiladigan mavzularni jismoniy toliqqan o‘quvchi-talabalar o‘zlashtira olmasligi aniq. Ta’lim sifatining buzilishi kadrlar bozoriga jiddiy salbiy ta’sir o‘tkazdi. Buning asoratlari esa hanuzgacha turli sohalardagi oqsoqliklarda namoyon bo‘lmoqda...

Bugun zamonaviy ta’lim muhiti yaratildi. Mamlakatda mutlaqo yangi uzluksiz ta’lim tizimi mazmun va texnologiyalar bilan shakllandi. Avvalo, ta’lim muassasalari zamon talablariga mos ravishda jihozlandi. O‘quv dasturlari yangilandi, mashg‘ulotlarda so‘nggi ta’lim texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Bu yoshlarga zamonaviy bilim va malakalarni egallash imkonini beryapti. Ta’lim mazmuniga jiddiy e’tibor qaratilayotir.

Keyingi yillarda birgina oliy ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida oliygohlar soni 200 tadan ortdi, talabalar soni esa 1,33 million nafargacha oshirildi.

> *“Davlatimiz rahbari mamlakatimizda maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy harakatga aylanganini alohida ta’kidladi. Yurtboshimizning e’tiroficha, ta’lim va ma’rifatni rag`batlantirish ishiga hissa qo`shayotgan insonlar siymosida biz jadid bobolarimizning munosib davomchilarini, ularning ushalayotgan orzu va intilishlarini, uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini ko`ramiz.”*

Shu davrlarda oliy ta’lim tizimidagi professor-o‘qituvchilar soni 1,64 barobar ko‘payganini ham ta’kidlash joiz.

Yana bir e’tiborli jihat, 2023/2024 o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan xorijlik talabalar soni 11,2 ming kishini tashkil etmoqda.

Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida qator chora-tadbirlar va vazifalar ham belgilangan. Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘liq ta’minlash, oliy o‘quv muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish shular jumlasidan.

Mamlakatimizda yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganish imkoniyatlari ham kengaytirilmoqda, chet tillarda ta’lim olish sharoitlari yaxshilanmoqda. Zero, bu islohotlar yoshlarga global bozorda raqobatbardosh bo‘lishga yordam beradi.

Yana bir jihat, zamonaviy raqamlashtirish va o‘quv texnologiyalariga asoslangan ta’lim mezonlari kengaymoqdagi, bunda yoshlar o‘zlari uchun qulay vaqtda va joyda o‘qish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Yangicha sharoit va mezonlar, o‘z navbatida, yoshlar uchun katta mas’uliyatni ham yuklaydi. Ular bu qulayliklardan oqilona foydalanib, o‘z kelajagi uchun mustahkam pog‘ona qurishlari kerak. Zotan, zamonaviy ta’lim olish, malaka orttirish, ijodiy fikrlash va jamiyat rivojiga o‘z hissalarini qo‘shish yoshlarning qo‘lida.

O‘zgarishlar faol yoshlar safini kengaytirdi

Ta’limdagi islohotlar yoshlarga zamonaviy bilim va malakalarni egallash, o‘z kamoloti uchun zarur sharoitlar yaratgan bo‘lsa, ishga joylashish uchun esa yangi imkoniyatlar taqdim etdi, kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirildi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, so‘nggi 7 yilda yurtimizda yoshlar uchun ijtimoiy himoya tizimi borasidagi qonunchilikda sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Bular yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati doirasidagi islohotlarning bir qismi bo‘lib, yigit-qizlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotda mustaqil turmush kechirishlari uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgani bilan ham ahamiyatlidir.

Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz yoshlarning huquq va manfaatlari, erkinliklarini kafolatlaydi, ularning ta’lim olish, ishga joylashish, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta’minlaydi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiyadan o‘tkazilgan.

Aytish mumkinki, hozirgi vaqtda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlari tatbiq etildi. Har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, ulardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy qilindi. Bu esa yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlash, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma’lumotlar bazasi – “yoshlar daftari” joriy etilgani navqiron avlodning ijtimoiy hayotida yana bir muhim qadam hisoblanadi. “Yoshlar daftari”ga kiritilgan ishsizlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlariga ta’lim olish, ishga joylashish, kasb-hunar o‘rganish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, salomatligini tiklash kabi qator masalalar bo‘yicha keng imtiyoz va imkoniyatlar berildi.

O‘zbekistonda Prezident tashabbuslari yoshlarning ijodkorligini rivojlantirishga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular ishtirokida turli tanlovlar, festivallar, forumlar o‘tkazilayotgani yigit-qizlarning iste’dodlarini namoyon etishiga imkon beribgina qolmay, yangi-yangi iqtidorlarni kamolga yetkazishda muhim omil bo‘layotir.

O‘tgan vaqt mobaynida sport sohasida yoshlarning qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor kuchaytirildi. Bu esa o‘z natijalarini bermoqda. Shu yil Parijda bo‘lib o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilari jami 208 ta davlat vakillari qatnashgan musobaqada yuksak matonat, mahorat va iroda ko‘rsatib, dunyoda 13-o‘rin, Osiyoda 4-o‘rin, turkiy, musulmon va MDH davlatlari orasida 1-o‘rinni egalladi. Biryo‘la 3 nafar sportchimiz “ikki karra Olimpiya chempioni”, degan yuksak sharafli nomga sazovor bo‘ldi. Shulardan biri O‘zbekiston Milliy universiteti talabasidir. Bu mamlakatimiz sporti tarixida eng yuqori natijalar bo‘ldi. Yangi O‘zbekiston yoshlari nimaga qodir ekanini butun dunyoga ko‘rsatib, ularning yutug‘i tariximizda zarhal harflar bilan muhrlandi.

Albatta, bu o‘zgarishlar yoshlarning ijtimoiy hayotda yanada faol ishtirok etishiga, o‘z fikrlarini mustaqil bildirishiga, jamiyat rivojiga munosib hissalarini qo‘shishiga imkon beradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mamlakatimiz eng rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin egallash yo‘lida dadil odimlayotgan shu kunlarda hali bu borada qilinadigan ishlar ko‘p. Shu nuqtayi nazardan, yoshlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish, ularning ijtimoiy hayotidagi muammolarini hal qilish sa’y-harakatlari jadal davom ettirilmoqda.

El-yurt taqdiriga daxldorlik hissi

Yurtimizda muhim siyosiy jarayon – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga saylovlar bo‘lib o‘tdi. Ushbu jarayonda yoshlarning faol ishtirok etgani ularning el-yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashayotganidan dalolat.

Aytish kerakki, keyingi yillarda yoshlarning siyosiy ongi yuksalib borayotganini bir necha omillar bilan izohlash mumkin. Xususan, ommaviy axborot vositalarining erkin, to‘siqsiz faoliyatiga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi yoshlarga dunyodagi siyosiy jarayonlar, turli mafkuralar va siyosiy tizimlar haqida erkin ma’lumot olish imkonini bermoqda. Ularda ushbu jarayonlarni taqqoslash va tahlil qilish sharoitlarini yaratyapti. Qolaversa, siyosiy muhokamalar, debatlar va ochiq munozaralar ko‘payib, yoshlar siyosiy masalalarni muhokama qilish, o‘z fikrlarini bildirish va turli qarashlarni eshitish imkoniga ega bo‘lishdi. Hukumat tomonidan yoshlarga bo‘lgan e’tibor ortdi. Ertamiz egalarining siyosiy ongini shakllantirish, ularning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishini rag‘batlantirish uchun choralar ko‘rilmoqda. Zero, yoshlar – bu kelajagimiz, ularning siyosiy ongini shakllantirish esa o‘ta muhim masala.

Shu o‘rinda saylovlarda yoshlarning faol qatnashgani qanchalik muhim ahamiyatga ega, degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Avvalo, bu mamlakatimizda demokratik jarayonlar mustahkamlanib, jamiyatda siyosiy madaniyat yuksalib borayotganini ko‘rsatadi. Qolaversa, saylovlarda ishtirok etish yoshlarga siyosiy jarayonlarni yaqindan kuzatish, o‘z fikrlarini bildirish, siyosiy partiyalarning dasturlari bilan tanishish imkonini berdi. Qolaversa, ularning jamiyatdagi o‘zgarishlarga ta’sir o‘tkazish kuchini oshirdi. Ayniqsa, bu kelajakka investitsiya hamdir. Ya’ni yoshlarning siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki ularning kelajakda jamiyat hayotida muhim rol o‘ynashlariga imkon yaratadi.

Olib borilayotgan sa’y-harakatlarga qaramay, ba’zan guvoh bo‘lamiz, ayrim yoshlar siyosiy jarayonlarni to‘liq tushunmaydi yoki ular siyosiy huquqlari va majburiyatlari haqida yetarlicha ma’lumotga ega emas. Ba’zilarining esa siyosiy partiyalarga qo‘shilish, siyosiy faoliyatda ishtirok etishga bo‘lgan qiziqishi past. Shu bois siyosiy partiyalarning saylovdan saylovgacha bo‘lgan davrdagi targ‘ibot tadbirlarining ta’sirchanligini yanada oshirib borish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, yoshlarni siyosiy jarayonlar haqida ma’lumot bilan yetarlicha ta’minlash, ularning siyosiy huquqlari va majburiyatlarini tushuntirishning zamonaviy usullaridan foydalanish, siyosiy jarayonlardagi shaffoflikni oshirish, yoshlarning siyosiy partiyalarga qo‘shilishdan manfaatdorligini orttirish, ularni siyosiy faoliyatda ishtirok etishga rag‘batlantirishimiz kerak.


Bir narsa ayni haqiqatki, yoshlarning parlament saylovlarida faol ishtiroki mamlakatimiz kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Ularning siyosiy ongini shakllantirish, jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratish esa har birimizning burchimizdir.

Yangi O‘zbekistondagi barcha islohotlar aholi manfaatlariga qaratilgani bilan ham ahamiyatli. Yurtboshimiz rahnamoligida olib borilayotgan siyosatning asosiy maqsadi – bu jamiyatdagi har bir insonning hayotini yaxshilash, ularga munosib turmush sharoitini yaratish, huquq va erkinliklarini ta’minlash. Islohotlar samarasini esa odamlar o‘z hayotida ko‘rib turibdi. Chunonchi, ish o‘rinlari ko‘paydi, yoshlar uchun ish topish imkoniyat va sharoitlari kengaydi, odamlarning daromadlari oshdi. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari ta’minlandi, korrupsiyaga qarshi kurash kuchaydi. Milliy ong va madaniyat yuksaldi, yoshlarda vatanparvarlik ruhi shakllanmoqda. Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimida yangi texnologiyalar joriy etilyapti, xizmatlar sifati yaxshilanmoqda. Zero, hayotiy tashabbuslar ro‘yobi, islohotlar samarasi – bu mustahkam kelajakka qo‘yilgan tamal toshidir.

Inom MAJIDOV,
Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor.

FUTBOL

ABBOSBEK FAYZULLAYEV – QIT’AMIZDA TENGSIZ



Kecha Koreya Respublikasining Seul shahrida Osiyo futbol konfederatsiyasi tomonidan qit’a futbolining eng yaxshilarini taqdirlash marosimi o‘tkazildi. Unda o‘tgan yilgi yirik musobaqalar, xususan, “Osiyo kubogi – 2023” va futzal bo‘yicha Osiyo chempionati kabi turnirlar davomida o‘z mahoratini namoyish qilgan futbolchi, murabbiy va rasmiylar taqdirlandi.

Shuningdek, yilning eng yaxshi futbolchisi hamda eng yaxshi ayol futbolchi mukofotlaridan tashqari murabbiylar, a’zo assotsiatsiyalar va mintaqaviy assotsiatsiyalarning yutuqlari e’tirof etilib, jami 21 nafar g‘olib taqdirlanishi belgilangan.

O‘zbekistonlik futbol ishqibozlari uchun quvonarlisi, terma jamoamiz a’zosi, 21 yoshli Abbosbek Fayzullayev qit’amizning eng yaxshi yosh futbolchisi, deb tan olindi. Abbos ayni paytda Moskvaning “SSKA” jamoasida legioner maqomida muvaffaqiyatli to‘p surib kelmoqda. Mazkur sovrin uchun Abbosbek Fayzullayevdan tashqari Gaku Navata (Yaponiya) va Baye Jun Xo (Janubiy Koreya) nomzodlar qatorida ko‘rsatilgan edi.

“Xalq so‘zi”.

REKLAMA

«O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI» AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHINI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDAGI XABAR

Jamiyatning nomi: “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati.

Joylashgan joyi: 100084, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Amir Temur shohko‘chasi, 101-uy.

Elektron pochta manzillari: info@nbu.uz, webmaster@nbu.uz.

Umumiy yig‘ilish o‘tkazish sanasi va manzili: 2024-yil 14-noyabr, soat 11:00. Toshkent shahri, Amir Temur shohko‘chasi, 101-uy.

Aksiyadorlarning reestri shakllantiriladigan sana: 2024-yil 8-noyabr.

Kun tartibiga kiritilgan masalalar:

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash;

jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash;

“Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi va “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizomlari yangi tahririni tasdiqlash;

“Kuzatuv kengashi a’zolarining mukofotlash tartibi” to‘g‘risidagi Nizomiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash;

jamiyat ustaviga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash;

jamiyat ustav kapitalini oshirish;

qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlash;

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 31-dekabr holatiga MHXSga muvofiq tayyorlangan jamlama moliyaviy hisobotini majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatiga to‘lanadigan haq miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzishni tasdiqlash.

Gretsiyada o‘tkazilayotgan Jiu-jitsu bo‘yicha jahon chempionatida O‘zbekiston terma jamoasi tarkibidagi qoraqalpog‘istonlik sportchilar – Timur Bazarbayev va Aybek Prekeev oltin medalni qo‘lga kiritdi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.10 Topshirildi — 23.10 1 2 3 4 5 6